

BOLALAR MEHNATINI MUHOFAZA QILISHDA – BOLALAR MEHNATIGA QARSHI OMMAVIY HARAKATNING TUTGAN O‘RNI

Sitora Shoislomova

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Mehnat huquqi kafedrası o‘qıtuvchısı,
Toshkent, O‘zbekiston*

sitalaw22@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0003-4834-6169>

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro kasaba uyushmalari, ta’lim muassasalari va fuqarolik jamiyati tomonidan faol olib borilayotgan bolalar mehnatiga qarshi global harakatni tashkil etish va faoliyatining roli batafsil bayon etilgan. Muallif ushbu harakatning maqsadlarini, shu jumladan, bolalar mehnatini yo‘q qilish, qullik va odam savdosiga qarshi kurashish va barcha bolalar uchun bepul va sifatli ta’lim olish imkoniyatini kafolatlashni muhokama qilingan. Jamoatchilik fikrini o‘zgartirish va qonun hujjatlarini qabul qilishda ommaviy harakatlarning muhim roli yoritilgan. Bundan tashqari, dunyoning turli mintaqalarida bolalar mehnati bilan bog‘liq vaziyat tahlil qilingan, ayniqsa, Markaziy va Janubiy Amerikaga katta e’tibor qaratilgan, shu jumladan voyaga yetmaganlar soni bo‘yicha statistika va jinsiy mehnat ekspluatatsiyasining xususiyatlari batafsil ko‘rib chiqilgan. Ushbu maqola bolalar mehnati va uning global miqyosidagi oqibatlari bilan kurashish bo‘yicha sa’y-harakatlarning muhim o‘rni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: bolalar mehnatiga qarshi global harakat, kasaba uyushmalari, fuqarolik jamiyati, qullik, odam savdosi, bepul ta’lim, ommaviy harakatlar, qonunchilik, Markaziy va Janubiy Amerika, statistika, mehnatdan foydalanish, jinsiy bo‘linish.

Bolalar mehnatiga qarshi global harakat tashkiloti (*Global March Against Child Labour Organization*) – bu kasaba uyushmalari, fuqarolik jamiyati tashkilotlarini o‘zida jamlagan xalqaro tashkilot bo‘lib, bu tashkilot bolalar mehnatiga, qullik va odam savdosining barcha ko‘rinishdagi turlarini oldini olish bilan birga, barcha voyaga yetmaganlarni bepul va sifatli ta’limga ega bo‘lishini kafolatlaydi. Bu Global harakat mahalliy, milliy va mintaqaviy harakatlarni va yosh bolalar mehnatini himoya qilish hamda rag‘batlantirish maqsadida xalqaro tashkilotlarni qo‘llab quvvatlaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, xalqaro,



hukumatlararo idoralar va fuqarolik tashkilotlari bilan hamkorlik ishlarini olib borib, quyidagi maqsadlarni belgilagan:

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish;
- Xalqaro Mehnat Tashkilotining asosiy mehnat standartlari, xususan, bolalar mehnati bo'yicha 138-sonli bandlik yoshi to'g'risidagi konvensiyalari¹⁵ va 182-sonli bolalar mehnatining eng yomon ko'inishlari to'g'risidagi konvensiyalarini¹⁶ ratifikatsiya qilish va amalga oshirish;
- XMT ning mehnatdagi asosiy tamoyillar va huquqlar deklaratsiyasini amalga oshirish va bajarish;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini amalga oshirish va unga rioya qilish;
- keng bilim doirasini to'plash va tarqatish, tashkilotni bolalar mehnati bo'yicha markazga aylantirish;
- bolalar mehnatiga barham berish uchun butun dunyo bo'ylab izchil harakatni shakllantirish va mustahkamlash uchun bir qator manfaatdor tomonlarni birlashtirish;
- manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda olib boriladigan targ'ibot tadbirlari orqali bolalar mehnatiga oid siyosat va dasturlarga aniq ta'sirlar ko'rsatish;
- 2030-yilga qadar bolalar mehnati, qullik va odam savdosiga qarshi jahon miqyosida harakatni kuchaytirish va boshqalar¹⁷.

Ushbu tashkilot dunyo miqyosida voyaga yetmagan shaxslar ishlashi mumkin bo'lgan joylarni ko'zdan kechirish va so'roq qilish, ularning faoliyatini o'rganib chiqish orqali yosh bolalarning mehnatiga qarshi kurashib kelmoqda. Bu tashkilot o'zining oldiga aniq maqsadlar qo'ygan bo'lib, ular jumlasiga 2030-yilgacha voyaga yetmaganlar mehnati, qullik hamda odam savdosiga barham berish kabilar kiradi. Tashkilotning hujjatlarida berilgan eng asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat¹⁸:

4 – maqsad. Adolatli va sifatli ta'lim bilan barcha yosh bolalarni ta'minlash;

8.7 – maqsad. Majburiy mehnatga barham berish, zamonaviy qullik va odam savdosiga barham berish, bolalar mehnatining eng yomon shakllarini, shu jumladan, bolalarni harbiy ishlarda ishlatishga barham berish;

¹⁵ <https://www.ilo.org/ru/media/261411/download>

¹⁶ Конвенция о запрещении и немедленных мерах по искоренению наихудших форм детского труда [Конвенция 182] Принята на 87-й сессии Генеральной конференции Международной организации труда, Женева, 1 июня 1999 года

¹⁷ <https://lex.uz/docs/-2396822> [Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Konvensiyalarini 2014 — 2016-yillarda amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida]

¹⁸ mehnat.uz/uz/news/voyaga-etmagan-shahsning-ishlashi-qonuniymi-talablarimtiezlar-va-zhavobgarlik-masalasi



16.2 – maqsad. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, ekspluatatsiya, odam savdosi va zo‘ravonlikning barcha shakllarini tugatish va bundan tashqari bolalar mehnatiga qarshi global harakatlar bolalarning barcha huquqlaridan foydalanishini ta‘minlash hamda ularga zarar yetkazadigan va rivojlanishiga qarshilik qiladigan har qanday turdagi ishlarni bajarishdan himoya qiladi¹⁹.

Bola mehnatiga qarshi ommaviy harakatining boshlanishi. Bu harakat dastlab 1998-yilda boshlangan bo‘lib, keyinchalik sekin-asta 100 dan ortiq davlatni qamrab oldi va ommaning yuqori darajadagi ishtirokiga sabab bo‘ldi. O‘sha paytda minglab odamlar voyaga yetmaganlarning mehnatini himoya qilish maqsadida birgalikda ko‘chalarga chiqib mitinglar uyushtirishgan. 7 milliondan ortiq kishi bu harakatga hayrixohligini bildirgan edi va ko‘plab dunyo yetakchilari ham ushbu harakatni qo‘llab quvvatlashni boshlashgan edi. Bu o‘sha paytda mehnati ekspluatatsiya qilingan yosh bolalar nomidan qilingan eng yirik ijtimoiy harakatlardan biriga aylandi. Aynan ushbu ommaviy harakat XMT ning bolalar mehnatining eng yomon shakllari to‘g‘risidagi 182–sonli konvensiyasi loyihasi ishlab chiqishiga sabab bo‘ldi va tez orada Konvensiya XMT ning Jenevadagi konferensiyasida bir ovozdan ma‘qullandi va qabul qilindi. 2020-yilda XMT ning 182-sonli Konvensiyasi umumjahon miqyosida ratifikatsiya qilindi va bu Konvensiya XMT ning tarixidagi eng tez ratifikatsiya qilingan va yagona universal bo‘lgan konvensiya bo‘lib hisoblandi.

Voyaga yetmaganlarning mehnatini muhofaza qilish bu global miqyosidagi, hamma birdek teng kurashishi lozim bo‘lgan harakat hisoblanadi.

Shuni ta‘kidlab o‘tishimiz lozimki, voyaga yetmaganlar mehnatini muhofaza qilishda quyidagi jamiyat qatlamlari muhim joyni egallaydi²⁰:

Ota-onalar. Ular o‘z farzandlarini nomaqbul ishlarga jalb qilmasdan ularni uyda qolishga va maktabga borishga ko‘ndirishlari kerak.

Jamiyat va adolat rahbarlari (siyosatchilar). Ular voyaga yetmaganlarni jamiyatdagi qo‘riqchisi bo‘lib xizmat qilish bilan birga, bolalarni maktabga borishini yetarli darajada nazorat qilishi kerak.

O‘qituvchilar. Bu soha vakillari bolalarga sifatli ta‘lim berish orqali ularni ta‘limga qiziqishini oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, o‘qituvchilar agar o‘quvchi maktabga davomli kelmasa bu haqida tegishli tashkilotlarni ogohlantirish orqali ularni mehnatiga qarshi kurashishi mumkin.

Bolalarning o‘zlari. Ya‘ni ular ishga chiqishni o‘rniga o‘zlarining ta‘lim olish

¹⁹ <https://globalmarch.org/about-us/who-we-are/introduction/>

²⁰ Хамматова Э. Н., Гафиатуллина О. А. История развития прав детей, реализация этих прав в мире. – Казань: Библиосфера. 2020



huquqlari uchun o'zlari ham kurashishlari mumkin.

Fuqarolar. Ular davlatdan va xalqaro tashkilotlardan bolalar huquqlarini himoya ostiga olinishini talab qilishlari va har bir bolani maktab ta'limi bilan qamrab olishlarini so'rashi mumkin.

Siyosiy liderlar. Ular bolalar mehnatining yomon oqibatlari haqida ommani xabardor qilishlari va ta'lim sohasidagi normalarni voyaga yetmaganlar orasida keng tatbiq qilishlari mumkin.

Hukumatlar. Ular bola huquqlari sohasida samarali qonunlarni joriy qilishi va shu yo'nalishda to'g'ri siyosat olib borishi mumkin. Bundan tashqari, ular hamma bolalar uchun sifatli ta'limni bepul qilish va ehtiyojmand oilalarga davlat tomonidan beriladigan yordamni taqdim etishlari mumkin.

Ish beruvchilar. Ular o'zlarining ish joylarida voyaga yetmaganlarni taqiqlangan ishlarga jalb qilmasliklari orqali ham voyaga yetmaganlarning mehnatga oid huquqlarini buzilishini oldini olishi mumkin.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Ular ish joylaridagi xodimlarning yoshini tekshirib, minimal yoshga yetmagan xodimlarni ishdan bo'shatib, ushbu sohani tartibga solishda muhim rol o'ynashi mumkin.

Inson huquqlari tashkilotlari va fuqarolik jamiyatlari. Bunda tashkilotlar davlatlarni tegishli qonunlarni ishlab chiqishga va joriy qilishga undashi mumkin. Ular hattoki davlatlar bilan ushbu sohada tegishli qonunlarni ishlab chiqishda hamkorlik ham qilishlari mumkin.

Markaziy va Janubiy Amerikada voyaga yetmaganlar mehnati. Bola mehnatiga qarshi ommaviy harakat tashkilotining kuzatishlari.

Hisob kitoblarga ko'ra, hozirda Lotin Amerikasi va Karib dengizi qirg'oqlarida 10.5 milliordan ortiq voyaga yetmagan yoshlar turli xil sohalarda mehnat qilishadi. 2012-yilda voyaga yetmaganlarning mehnati umumiy mehnatning 8.8 foiziga to'g'ri kelgan. Lekin 2016-yilga kelib bu ko'rsatkich 7.3 foizga tushgan. Voyaga yetmaganlar – bolalar mehnatining asosiy qismini tashkil etadigan qatlam hisoblanadi. Umumiy bolalar mehnatining 37 foizi besh yoshdan o'n bir yoshgacha bo'lgan bolalar ulushiga to'g'ri keladi. 28 foizi esa o'n ikki yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lganlar, hissasiga to'g'ri kelsa qolgan o'ttiz besh foizi o'n besh yoshdan o'n yetti yoshgacha bo'lgan bolalar ulushiga to'g'ri keladi²¹.

Markaziy Amerikaning oltita davlatida 2 millionga yaqin 5 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan yoshlar noqonuniy ishlashi aniqlangan. Bu esa avvalgi ko'rsatkichlar bilan taqqoslaganda 5.76 foizga ko'p deganidir va bu

²¹ <http://www.ilo.org/ipec/facts/lang--en/index.htm>



ko'rsatkichdan ma'lumki so'ngi yillarda 107 000 dan oshiq yoshlar ish bozoriga kirib kelgan. Gvatemala 790 000 ta voyaga yetmagan bolalarning o'z hududida mehnat qilishi bilan ushbu sohada yetakchi davlat hisoblanadi. Undan keyingi o'rinda esa 600 000 ga yaqin ko'rsatkich bilan Nikeragua davlati turadi. Uchinchi o'rinni o'z hududida 400 000 ta yosh bolalarning mehnati qilishi bilan Gonduras davlati turadi. Qolgan o'rinlarni 130 000 ta bilan El Salvador va oxirida voyaga yetmaganlar (30.000 ta) eng kam mehnat qiladigan davlat Costa Rika turadi.

Janubiy Amerikaning 6 ta davlatida 5 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan va og'ir mehnat sharoitlarida ishlaydigan voyaga yetmagan yoshlar soni 5 900 000 tani tashkil qilishi ko'rstilgan. Bu esa voyaga yetmaganlarning mehnati deyarli 6 foizga ko'tarilganligini bildiradi²². Ba'zi joylardagi kambag'allikning qisqarishi va iqtisodiyotning o'sishiga qaramasdan voyaga yetmaganlarning mehnatiga hali hamon chek qo'yilgani yo'q. Braziliya voyaga yetmaganlarning mehnati sohasida yetakchi davlat hisoblanadi. U yerdagi bolalarning qariyb 2 500 000 tasi mehnat qilish bilan band hisoblanadi. Undan keyingi o'rinni 1 600 000 ta bilan Peru egallaydi. Keyingi o'rinlarni esa Kolumbiya, Argentina, Paraguay va Chili davlatlari 644 000, 613 000, 416 000, 219 000 ta bolalar bilan egallaydi.

Bolalar mehnatini jinsga ko'ra bo'linishi. Markaziy Amerikada ya'ni Gonduras, El Salvador, Costa Rika va Panamada ta'qiqlangan mehnat bilan shug'ullanadigan bolalarning 70 foizdan ortig'i o'g'il bolalar hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich Gvatemalada 67 foiz va Nikeraguada 60 foizni tashkil etadi. Xuddi shu davlatlarda qizlarning mehnati 39 foizni tashkil etadi²³.

Janubiy Amerikada ya'ni Braziliya, Chili, Kolumbiya, Paraguayda mehnat qiladigan voyaga yetmaganlar 60 foizdan ortadi. Bu ko'rsatkich Peruda 58 foizni, Argentinada 56 foizni tashkil qiladi. Ushbu mamlakatlarda ta'qiqlangan o'gir mehnat bilan shug'ullanuvchi qizlar esa 43 foizni tashkil etadi.

Voyaga yetmaganlar mehnatining sohalarga qarab bo'linishi. Markaziy Amerikada voyaga yetmagan yoshlar eng ko'p mehnat qiladigan sohalardan biri bu qishloq xo'jaligi sohasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qiluvchi yoshlar Gvatemala, Gonduras, El Salvador, Nikeragua va Panamada 60 foizdan oshadi. Faqatgina Kosta Rikada bu ko'rsatkich 43 foizni tshil qiladi. Paragvay, Peru va Kolumbiyada qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qiluvchi yoshlar 50 foizdan

²² Bolalar mehnati nima? – UNICEF: <http://www.ilo.org/ipec/facts/lang--en/index.htm>

²³ <http://www.ilo.org/ipec/facts/lang--en/index.htm>



ortadi. Qolgan davlatlarda esa masalan, Braziliyada 41 foizni, Argentinada 25 foizni va Chilida 19 foizni tashkil etadi²⁴.

Ishlash uchun belgilangan eng kichik yosh.

Markaziy Amerika.

Ushbu hududdagi beshta davlatda shaxs qonuniy mehnat qilishi uchun eng kamida 14 yoshga to'lgan bo'lishi lozim. Faqatgina Kosta Rikada ishlash uchun minimal yosh 15 yosh hisoblanadi. Markaziy Amerikadagi belgilangan yoshdan kichik bo'lib, ya'ni noqonuniy mehnat qilayotgan yoshlar 45 foizni tashkil etadi. Qolgani esa qonun ruxsat bergan yoshga kirib ishlashadi.

Janubiy Amerika.

Peru va Paragvayda qonuniy ishga kirish yoshi 14 hisoblanadi. Chili va Kolumbiyada ishga kirish yoshi 15 hisoblansa, Argentina va Braziliyada shaxs 16 yoshga kirgandan so'ng ishlashiga ruhsat beriladi²⁵.

Bolalar mehnatiga qarshi global harakat (Global March Against Child Labour) harakati nomidan kelib chiqsak, voyaga yetmaganlarning mehnatiga kasaba uyushmalari, bola huquqini himoya qiladigan tashkilotlar va o'qituvchilar bilan hamkorlikda va ularning yordamida kurashadigan xalqaro tashkilot hisoblanadi. Unga dunyo bo'ylab 50 ta davlat a'zo hisoblanib, tashkil etilganidan buyon quyidagi ishlarni amalga oshirmoqda:

1. *Siyosatchilarni voyaga yetmaganlar huquqini himoya qilishga undash.* Bu tashkilotning xodimlari davlat rahbarlari va siyosatshunoslarni o'z hududida voyaga yetmaganlar mehnatini muhofaza qiluvchi qonunlarni ishlab chiqishga undaydi.

2. *Jamiyat va oila bilan ishlash.* Tashkilot a'zolari – maktablar, ot-onalar, qishloq joylarda qishloqlarning oqsoqollari bilan suhbatlar o'tkazib, ularning bolalarga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga harakat qilishadi.

3. *Voyaga yetmaganlar mehnatiga qarshi kurashish uchun milliy strategiyalar ishlab chiqish.* Tashkilot xodimlari Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida hukumatlar, BMT tashkilotlari va boshqa ijtimoiy tashkilotlar uchun strategiyalar tuzish va bolalar mehnatini muhofaza qilish bo'yicha qonunlar ishlab chiqishda ko'mak beriladi.

4. *Bolalarni o'zlarini huquqlaridan xabardor qilish.* Boshqacha qilib aytganda mehnat qilish yoshiga yetmagan bolalar uchun alohida va maxsus o'quv jarayonlari tashkil qilib, ularning mehnat sohasida qanday huquqlari borligi haqida

²⁴ Zamonaviy qullik va bolalar mehnatini global baholash 2022 [Elektron resurs].
<http://www.alliance.org/2022ge/childlabour#!section=0>

²⁵ <https://globalmarch.org/events/>



muntazam ravishda tushuntirishlar olib boriladi.

5. *Majburiy mehnatdan aziyat chekkan yoshlarni huquqiy, moddiy, tibbiy yordam bilan ta'minlash.*

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda o'tkazilayotgan tadqiqotlar bolalar mehnati muammosi hozirgi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lishini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu harakat doirasida ta'lim va mehnatdan foydalanishning tengsizligi, ijtimoiy adolat va bolalar huquqlarini himoya qilish kabi ko'plab muammolarni hal qilish bo'yicha sa'y-harakatlarni kuchaytirish zarur. Xavfsiz va g'amxo'r muhitda o'sishi va rivojlanishi uchun yashash sharoitlarini yaxshilash va bolalarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan yangi yondashuvlar va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni davom ettirish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.ilo.org/ru/media/261411/download>
2. Конвенция о запрещении и немедленных мерах по искоренению наихудших форм детского труда [Конвенция 182] Принята на 87-й сессии Генеральной конференции Международной организации труда, Женева, 1 июня 1999 года
3. <https://lex.uz/docs/-2396822> [Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan Konvensiyalarini 2014 — 2016-yillarda amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida]
4. mehnat.uz/uz/news/voyaga-etmagan-shahsning-ishlashi-qonuniyimi-talablarimtiezlar-va-zhavobgarlik-masalasi
5. <https://globalmarch.org/about-us/who-we-are/introduction/>
6. Хамматова Э. Н., Гафиатуллина О. А. История развития прав детей, реализация этих прав в мире. – Казань: Библиосфера. 2020
7. Bolalar mehnati nima? – UNICEF: <http://www.ilo.org/ipecc/facts/lang-en/index.htm>
8. Zamonaviy qullik va bolalar mehnatini global baholash 2022 [Elektron resurs]. <http://www.alliance.org/2022ge/childlabour#!section=0>
9. <https://globalmarch.org/events/>
10. Mehnat huquqi. Darslik. Mualliflar: X.V. Burxonhodjaeva, M.P.Ibragimova, U.B.Abdurahmanov va boshqalar. 199 – bet.
11. Mehnat huquqi. Darslik. Y.Tursunova. M.Usmanova. Toshkent 2006.





12. Tursunov, Yo'ldosh. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga sharh (Ilmiy - amaliy, moddalar bo'yicha sharhlar). – T.: “Adolat”, 2018 y.
13. Mehnat huquqi: Maruzalar kursi. J.T.Xolmo'minov, A.X.Dusmanov, T.N.Tillayev va boshqalar. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014.

